

62

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektori

X.B.Yunusov

2024-yil “02” 08

AKUSHERLIK PATOLOGIYASI

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000	– Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterinariya
Ta’lim sohasi:	840000	– Veterinariya
Mutaxassislik:	70840104	– Veterinariya akusherligi va hayvonlarni ko‘paytirish biotexnikasi

Samarqand - 2024

Fan modul kodi AP1206		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 6	
Fan modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Akusherlik patologiyasi	90		90	180
2.	1. Fanning mazmuni <p>Fanni o'qitishdan maqsad - hayvonlarda otalanish, uning bosqichlari va kechish xususiyatlari, bo'g'ozlik fiziologiyasi, bo'g'oz hayvonlar kasalliklari, hayvonlarni tug'ishiga yordam ko'rsatish, yangi tug'ilgan hayvonlar va sut bezlarining kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini o'tkazishning nazariy asoslarini o'rgatish hamda mutaxassislikga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – magistr larga otalanish, uning kechish xususiyatlari, bo'g'ozlik fiziologiyasi, bo'g'oz hayvonlar kasalliklari, hayvonlarni tug'ishiga yordam ko'rsatish, tug'ish va tugishdan keying davr kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar va sut bezlarining kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini qo'llab, hayvonlar maxsukdorligi va reproguktiv qobiliyatini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini yaratishni o'rgatishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Otolanish va murtakni rivojlanishi</p> <p>Hayvonlarda otalanish fiziologiyasi, bosqichlari va unga ta'sir etuvchi omillar. Superovulyatsiya. Superfekundasiya. Tuxum hujayrasining tuxum yo'llari bo'ylab harakatlanishi. Spermiylarni urg'ochi hayvon jinsiy yo'llari bo'ylab harakatlanishi. Zigotani bachadon devoriga yopishishi va rivojlanishi. Homila pardalarining rivojlanishi.</p> <p>2-mavzu. Homilada qon aylanishini o'ziga xosligi. Homila oldi va siydik suyuqligi</p> <p>Homilada qon aylanishining mohiyati, o'ziga xosligi, Homilani rivojlanish bosqichlari va uning yoshini aniqlash. Homila oldi va siydik suyuqligi, ularning tarkibi, miqdori, hosil bo'lishi va ahamiyati. Homila yo'ldoshi. Kindik. Homila bilan ona hayvon organizmi bog'lanishining turlari. Homila yo'ldoshi to'sig'i (bar'eri).</p>				

3-mavzu. Bo'g'ozlik fiziologiyasi

Bo'g'ozlik turlari. Bir homilali, ko'p homilali, birlamchi va ikkilamchi, fiziologik, patologik, qo'shimcha va yolg'on bo'g'ozliklar. Hayvonlarda bo'g'ozlik muddatlari. Bo'g'oz hayvon organizmida kuzatiladigan o'ziga xos o'zgarishlar va moddalar almashnuvi. Sutdan chiqarilgan bo'g'oz sigirlarda o'tkaziladigan diagnostik va profilaktik tadbirlar.

4-mavzu. Hayvonlarda bo'g'ozlikning diagnostikasi

Turli hayvonlarda bo'g'ozlikni aniqlashning ahamiyati. Bo'g'ozlikni aniqlash usullarining afzallik va kamchiliklari. Hayvonlarda bo'g'ozlikni aniqlashning refleksologik usullari. Hayvonlarda bo'g'ozlikni qin orqali va to'g'ri ichak orqali aniqlash usuli Oldingi bo'g'ozlikning diagnostikasi. Hayvonlarda bo'g'ozlikni aniqlashning laborator usullari.

5-mavzu. Hayvonlarda bo'g'ozlikni aniqlashning zamonaviy usullari

Sigirlarda bo'g'ozlikni laboratoriya usullari yordamida (gormonal, radio-immunologik) aniqlash usullari. Sigirlarda bo'g'ozlikni har xil asboblarda yordamida (ultravovush, rengen apparat) aniqlash usullari. Biyalarda, qo'y va echkilarda o'g'ozlikni laboratoriya usullari yordamida (gormonal, radio-immunologik), har xil asboblarda yordamida (ultravovush, rengen apparat) aniqlash usullari. Qo'y va echkilarda o'g'ozlikni laboratoriya usullari yordamida va har xil asboblarda yordamida aniqlash usullari.

6-mavzu. Bo'g'oz hayvonlarning kasalliklari

Bo'g'oz hayvonlar organizmiga tashqi omillarning ta'siri. Bo'g'ozlik patologiyalari turlari va sabablari. Bo'g'oz sigirlar osteomalyasiyasi, homila pardalarida ortiqcha suyuqlik yig'ilishi, bachadon griyasi, bachadonni buralib qolishi, bachadondan tashqari bo'g'ozlik. Biyalarda bo'g'ozlik patologiyalarining turlari, sabablari, davolash va oldini olish.

7-mavzu. Hayvonlarda abortlarni davolash va oldini olishning nazariy va ilmiy asoslari

Abortlarning turlari, sabablari, davolash va oldini olish chora-tadbirlari. Idiopatik, simptomatik, sun'iy abortlar. Kasalliklarning iqtisodiy zarari, sabablari, davolash va oldini olishning nazariy va ilmiy asoslari. Abortlarning asoratlarni davolash tamoyillari. Hayvonlarda abortlarning umumiy profilaktikasi.

8-mavzu. Tug'ish fiziologiyasi

Tug'ishni boshlanishiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi nazariyalar. Turli hayvonlarda tug'ishning kechish xususiyatlari, davom etishi. Turli urg'ochi hayvonlarda tos suyagining tuzilishidagi farqlar. Pelvimetriya. Tug'ish paytida homilaning joylashishi, pozitsiyasi, holati va homila a'zolarini joylashish turlari. Tug'ish me'yorida kechganda akusherlik yordami ko'rsatish qoidalar.

9-mavzu. Tug'ishdan keyingi davr fiziologiyasi

Tug'ishdan keyingi davr, organizmdagi umumiy o'zgarishlar. Jinsiy organlar involyusiyasi (o'z holatiga qaytishi). Sut bezlari va jinsiy a'zolarining bir-biriga bog'liqligi. Turli hayvonlarda tug'ish va tug'ishdan keyingi davrning kechishidagi farqlar. Tuqqan hayvon va yangi tug'ilgan hayvonlarni parvarishlash qoidalar.

10-mavzu. Tug'ish va tug'ishdan keyingi davr patologiyasi

Tug'ish patologiyasining iqtisodiy zarari, tarqalishi va sabablari. Tug'ishga yordam ko'rsatishning maqsadi, zamonaviy akusherlik asbob-uskunalar. Qin va qin dahlizining torligi. Tug'ish yo'llarining qurib qolishi. Tos yuzasi va homila kattaligining bir-biriga mos kelmasligi. Tug'ish va tug'ishdan keyingi davr patologiyalarida akusherlik yordami.

11-mavzu. Tug'ishga yordamlashuvchi operatsiyalar. Tug'ish yo'llarining jarohatlanishlari

Kesarevo usulida qorin devorini kesish, fetotomiya kabi akusherlik jarrohligi operatsiyalari tavsiya etiladigan holatlar. Operatsiyalarida ishlatiladigan zamonaviy asbob-uskunalar va jihozlar. Kesarevo usulida qorin devorini kesishning Biyalarda, qo'y va echkilarda o'g'ozlik laboratoriya usullari yordamida (gormonal, radio-immunologik), har xil asboblarda yordamida (ultratovush, rengen apparat) aniqlash usullari. Fetotomiya jarrohligi operatsiyalarini bajarishning zamonaviy usullari.

12-mavzu. Tug'ish yo'llarining jarohatlanishlari

Sigirlarda tug'ish yo'llarining jarohatlanishlarini keltirib chiqaruvchi sabablar. Tug'ish yo'llarining jarohatlanishlari davolash va oldini olishda asseptika va antiseptika qoidalar. Sigirlarda tug'ish yo'llarining jarohatlanishlari davolash va oldini olishning zamonaviy usullari. Biya va qo'y-echkilarda tug'ish yo'llarining jarohatlanishlari davolash va oldini olishning

Oliy ta'limning 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilim sohasining 70840104 – Veterinariya akusherligi va hayvonlarning ko'paytirish biotexnikasi mutaxassislari uchun tayyorlangan «Akusherlik patologiyasi» fanining o'quv dasturiga

TAQRIZ

Respublikamizning «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga mos ravishda qishloq xo'jaligi va veterinariya ilmi-fanini raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislarga bilan ta'minlash maqsadida tahsil olayotgan magistrlar «Akusherlik patologiyasi» fanidan hayvonlarda otalanish, uning bosqichlari va kechish xususiyatlari, bo'g'ozlik fiziologiyasi, bo'g'oz hayvonlar kasalliklari, hayvonlarni tug'ishga yordam ko'rsatish, yangi tug'ilgan hayvonlar va sut bezlarining kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini o'tkazish usullari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, hayvonlar mahsuldorligi va reprodaktiv qobiliyatini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat.

«Akusherlik patologiyasi» fani mutaxassislarga fanlaridan biri bo'lib, bo'g'ozlik fiziologiyasi, bo'g'oz hayvonlar kasalliklari, hayvonlarni tug'ishga yordam ko'rsatish, tug'ish va tug'ishdan keying davr kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar va sut bezlarining kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini va ularni tashkillashtirish nazariy asoslarini o'rgatadigan fandır.


Dasturning asosiy qismida fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni, otalanish, uning kechish xususiyatlari, bo'g'ozlik fiziologiyasi, bo'g'oz hayvonlar kasalliklari, hayvonlarni tug'ishga yordam ko'rsatish, tug'ish va tug'ishdan keying davr kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar va sut bezlarining kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish usullarini o'rganish va tashkillashtirish, hayvonlar mahsuldorligi va ko'payish xususiyatlarini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini yaratishni o'rgatishdan iborat.

Fan dasturining tarkibida o'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari), amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari alohida-alohida berilgan.

Dasturda ma'ruza va amaliy darslar, mustaqil mashg'ulotlarning mavzulari rejalashtirilgan soatlarga mutanosib taqsimlangan.

«Akusherlik patologiyasi» fanidan tayyorlangan mazkur dasturni hozirgi davr va mutaxassislarga bo'yicha malaka talablariga javob beradi, deb hisoblayman va uni belgilangan tartibda tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.

Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari
va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi
davlat markazi direktori

 Allamurodova M.M.

Oliy ta'limning 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilim sohasining 70840104 – Veterinariya akusherligi va hayvonlarning ko'paytirish biotexnikasi mutaxassisligi uchun tayyorlangan "Akusherlik patologiyasi" fanning o'quv dasturiga
TAQRIZ

Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga mos ravishda qishloq xo'jaligi va veterinariya ilm-fanini raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida tahsil olayotgan magistrlar "Akusherlik patologiyasi" fanidan hayvonlarda otalanish, uning bosqichlari va kechish xususiyatlari, bo'g'ozlik fiziologiyasi, bo'g'oz hayvonlar kasalliklari, hayvonlarni tug'ishiga yordam ko'rsatish, yangi tug'ilgan hayvonlar va sut bezlarining kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini o'tkazish usullari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, hayvonlar mahsuldorligi va reproduktiv qobiliyatini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat.


"Akusherlik patologiyasi" fani mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib, bo'g'ozlik fiziologiyasi, bo'g'oz hayvonlar kasalliklari, hayvonlarni tug'ishiga yordam ko'rsatish, tug'ish va tug'ishdan keying davr kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar va sut bezlarining kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini va ularni tashkillashtirish nazariy asoslarini o'rgatadigan fandır.

Dasturning asosiy qismida fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni, otalanish, uning kechish xususiyatlari, bo'g'ozlik fiziologiyasi, bo'g'oz hayvonlar kasalliklari, hayvonlarni tug'ishiga yordam ko'rsatish, tug'ish va tug'ishdan keying davr kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar va sut bezlarining kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish usullarini o'rganish va tashkillashtirish, hayvonlar mahsuldorligi va ko'payish xususiyatlarini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini yaratishni o'rgatishdan iborat.

Dasturda fanning maqsadi va vazifalari; fan bo'yicha talabalarining tasavvuri, bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar; o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi; fanning ilm-fan va ishlah chiqarishdagi o'rni bo'yicha uslubiy ko'rsalmalar berilgan.

Dasturda fanning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya darslari va mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ko'rsalmalar, dars uchun kerak bo'ladigan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari alohida-alohida ifodalangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda «Akusherlik patologiyasi» fanidan tayyorlangan ushbu dasturni hozirgi davr va mutaxassislik bo'yicha malaka talablariga javob beradi, deb hisoblayman. Dastur ilmiy va uslubiy jihatdan DTS talablariga javob beradi deb hisoblayman. Dasturni o'rnatilgan tartibda tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.



[Handwritten Signature]
O.U.Kuldashev

zamonaviy usullari.

13-mavzu. Hayvonlarda jinsiy a'zolarining tug'ishdan keyingi kasalliklari

Tug'ish va tug'ishdan keyingi davr kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olishning nazariy va ilmiy asoslari. Sigirlarda yo'ldoshni ushlab qolishini konservativ davolash va oldini olishning zamonaviy usullari. Bachadonni chiqib qolishi va tug'ruqdan keying yarim falaj kasalligini davolash va oldini olishning zamonaviy usullari. Biya va qo'y-echkilarda yo'ldoshni ushlab qolishini konservativ davolash va oldini olishning zamonaviy usullari.

14-mavzu. Tug'ishdan keyingi umumiy infeksiya (tug'ruq isitmasi), septisemiya

To'g'ishdan keyingi umumiy infeksiya (tug'ruq isitmasi) etiologiyasi, patogenez, diagnostikasi va differensial diagnozi, davolash va oldini olishning zamonaviy usullari. Tug'ishdan keyingi yotib qolish kasalligining etiologiyasi, patogenez, diagnostikasi va differensial diagnozi. Tug'ishdan keyingi yotib qolish kasalligini davolash va oldini olishning zamonaviy usullari.

15-mavzu. Hayvonlarda bachadonning tug'ishdan keyingi kasalliklari

Hayvonlarda bachadonning tug'ishdan keyingi kasalliklari asosiy turlari, sabablari. Tug'ishdan keyingi o'tkir kataral-yiringli endometrit, fibrinli endometrit nekrotik metritlarni davolash va oldini olishning zamonaviy usullari. Tug'ishdan keyingi perimetrit, parametritlarni asosiy sabablari, davolash va oldini olishning zamonaviy usullari.

16-mavzu. Sut bezining fiziologiyasi va patologiyasi

Sut hosil bo'lishi va sut ajralishini neyrogumoral boshqarilishi. Sut bezlarining funksiyasiga sog'ish apparatlari va qo'l bilan sog'ishning ta'siri. Sut bezi kasalliklarining tasnifi. Mastitlarning sabablari, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Klinik va subklinik mastitlarni aniqlashning zamonaviy usullari.

17-mavzu. Sut bezlarining anomaliyalari

Sut bezlarining qisqacha morfofunktsional tavsifi. Sut bezlarining anomaliyalari (kamsutlik yoki sut bermaslik, sut bezlarining qattiq bo'lishi, sutni buzilishi, so'rg'ich kanalining bo'lmashligi va boshqalar) sabablari. Sut bezi kasalliklarini davolash va oldini olishning zamonaviy usullari. Yelinning travmatik shikastlanishi.

	<p>18-mavzu. Mastitlarni davolashning zamonaviy usullari</p> <p>Sigirlarda mastitlarni etiotrop va patogenetik davolashning zamonaviy usullari. Biya, qo'y va echkilarda mastitlarni etiotrop va patogenetik davolashning zamonaviy usullari. Fizioterapiya, novokainli qamal usullari. Sut bezi so'rg'ichlariga kateter yuborishda asseptika va antiseptika</p>
	<p>19-mavzu. Mastitlarni oldini olishning zamonaviy usullari</p> <p>Sigirlarda mastitlarni oldini olishning ilmiy asoslari. Biyalarda mastitlarni oldini olishning ilmiy asoslari. Qo'y va echkilarda mastitlarni oldini olishning zamonaviy usullari. Sigirlarda sut bezining eksterpasiyasi. Sut bezi va so'rg'ichlarining jarrohliklari.</p>
	<p>20-mavzu. Sigirlarda yashirin mastitlar</p> <p>Sigirlarda yashirin mastitlarni sabablari, Sigirlarda yashirin mastitlarni laborator diagnostikasi usullari. Yashirin mastitlarni laborator diagnostikasida somatic hujayralarni sanash usuli Sigirlarda yashirin mastitlarni davolash va oldini olishning zamonaviy usullari. Boshqa hayvonlarda yashirin mastitlarni davolash va oldini olishning zamonaviy usullari.</p>
	<p>III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p><i>Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Spermiylarning urg'ochi hayvon jinsiy a'zolari bo'ylab harakati 2. Bo'g'ozlik davrida uchraydigan kasalliklarni davolash va oldini olish rejasini ishlab chiqish. 3. Bachadondan qon ketishi, asoratlari, ularning diagnostikasi, davolash va oldini olish tartibi. 4. Hayvonlarda bola tashlashlarning asoratlari, ularning diagnostikasi, davolash va oldini olish tartibi. 5. Yuqumsiz birlamchi (idiopatik) abortlar 6. Yuqumli va parazitlar bola tashlash 7. Tug'ish patologiyalarida akusherlik yordami ko'rsatish. 8. Homilaning qurig'ida qolishi 9. Homila kattaligi va ona hayvon to's bo'shlig'i kengligining mos kelmasligini davolash va oldini olish. 10. Egizak homiladorlikda tug'ish patologiyalari 11. Kesarevo usulida qorin devorini kesish, fetotomiya operatsiyalarini bajarish tartibi. 12. Tug'ishga halaqit beruvchi majruhlik va nuqsonlar.

	<p>S.M.Djumanov - SamDVMCHBU, Veterinariya jarrohligi va akusherlik kafedrasida dotsent v.b., v.f.n.</p>
10.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>1. O.U.Kuldoshev – Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti, laboratoriya mudiri, v.f.d.</p> <p>2. M.M.Ala murodova - Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi direktori</p>

	<p>“Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021. – 52 b.</p> <p>5. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021. – 36 b.</p> <p>6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.</p> <p>7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696 son Farmoni.</p> <p>8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.</p> <p>9. David E.Noakes Timothy J.Parkinson Gary C.W. England. Veterinary Reproduction and obstetrics. Coperight. 2019 by Elsevier, Ltd. All rights reserved.</p> <p>10. Акушерство, гинекология и биотехника репродукции животных: Учебник / Под ред. Г.П.Дюльгера. - 9-е изд., перераб. и доп. - СПб.: Издательство «Лань», 2019. - 548 с.: ил. - (Учебники для вузов. Специальная литература).</p> <p>11. Баймишев Х.Б., Землянкин В.В., Баймишев М.Х. Практикум по ветакшерству и гинекологии. Учебное пособие. ООО Издательство «Книга» Самара 2012 год.</p> <p>12. Студенцов А.П., Шипилов В.С., Никитин В.Я. и др.; Под ред. В.Я. Никитина и М.Г. Миролубова. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения/ – перераб. и доп. Учебник – М.: Колос, 2019 год.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>13. www.Ziyo.net.uz.</p> <p>14. www.vetjurnal.uz</p> <p>15. http://veterinary@actavis.ru</p> <p>16. http://www.kodges.ru</p> <p>17. www.urnivi.ru</p> <p>18. fvat@academy.uzsci.net</p>
8.	Fan dasturi “Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti” Kengashining 2024-yil “2.”-avgustdagi “12”-sonli bayoni bilan ma’qullangan
9.	Fan/modul uchun mas’ullar: B.M.Eshburiyev– SamDVMCHBU, Veterinariya jarrohligi va akusherlik kafedrasi professori, v.f.d.

	<p>13. Tug‘ish yo‘llarining jarohatlanishlari.</p> <p>14. Tug‘ishdan keyingi sapremiya va eklampsiya.</p> <p>15. Tug‘ishdan keyingi o‘tkir kataral-yiringli endometritni diagnostikasi, davolash va oldini olish.</p> <p>16. Biyalarda tug‘ishdan keyingi o‘tkir kataral-yiringli endometritni diagnostikasi, davolash va oldini olish.</p> <p>17. Tug‘ishdan keyingi fibrinli endometrit diagnostikasi, davolash va oldini olish.</p> <p>18. Tug‘ishdan keyingi umumiy infeksiya (tug‘ruq isitmasi), septisemiya.</p> <p>19. Metrit-mastit-agalaktiya sindromi.</p> <p>20. Gipogalaktiya va agalaktiya.</p> <p>21. Sut bezlarining kasalliklarini turli hayvonlarda kechish xususiyatlari.</p> <p>22. Mastitlar. Klinik va yashirin mastitlarni diagnostikasi, davolash va oldini olishning zamonaviy usullari.</p> <p>23. Spesifik mastitlar diagnostikasi, davolash va oldini olish.</p> <p>24. Yelin terisining yallig‘lanishi (dermatitlar).</p> <p>25. Yelinning travmatik shkastlanishi.</p> <p>IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar</p> <p><i>Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</i></p> <p>1. Sigirlarda tug‘ishdan keyingi kasalliklarning diagnostikasida qindan olingan suyuqliklarni laborator tekshirish.</p> <p>2. Biya, qo‘y va echkilarda jinsiy a‘zolar kasalliklarning laborator diagnostikasi.</p> <p>3. Turli hayvonlarda mastitlarni zamonaviy laborator diagnostikasi usullari.</p> <p>4. Mastitlarni diagnostikasida sutni bakteriologik tekshirish usullari.</p> <p>5. Tuya va eshakilarda bo‘g‘ozlik va bepustlikni diagnostikasi.</p> <p>6. Bo‘g‘ozlik paytida ona biyalar organizmida kuzatiladigan o‘zgarishlar.</p> <p>7. Qo‘y va echkilarda bo‘g‘ozlik va bepustlikni diagnostikasi zamonaviy usullari.</p> <p>8. Mahsuldor sigirlarda kam sut berishni oldini olish, Gipogalaktiya, agalaktiya. Spesifik mastitlar.</p> <p>9. Tug‘riqxonalarini tashkil etish va hayvonlarni tug‘ishga tayyorlash</p> <p>10. Tug‘ishning me‘yorida kechishida ona hayvon va yangi tug‘ilgan hayvonga yordam ko‘rsatish</p> <p>11. Bo‘g‘oz hayvonlarda yotib qolish kasalligini sabablari, davolash va oldini olish usullari.</p> <p>12. Sigirlarda infeksiyon va invazion abortlar. Sun‘iy abortlar. Abortlar paytida</p>
--	--

	<p>umumiy tadbirlar.</p> <p>13. Bo'g'oz hayvonlarni oziqlantirish, parvarishlash va ishlatishning ilmiy asoslari.</p> <p>14. Homila a'zolarining notug'ri joylashishi oqibatidagi tug'ish patologiyalari</p> <p>15. Mayda uy hayvonlarida tug'ishdan keyingi patologiyalar</p> <p>16. Homila yo'ldoshini eb qo'yish. Hayvonlarning o'z bolalarini eb qo'yishi.</p> <p>17. Tug'ishdan keyingi perimetrit. Tug'ishdan keyingi parametrit</p> <p>18. Sigirlar va biyalarda tug'ishdan keyingi gangrenoz septik metrit.</p> <p>19. It va mushuklarda tug'ishdan keyingi gangrenoz septik metrit.</p> <p>20. Turli hayvonlarda tug'ish va tug'ishdan keyingi davrni kechishi.</p> <p>21. Qo'y va echkilarda tug'ruqdan keyingi endometritlarni davolash va oldini olish.</p> <p>22. It va mushuklarda endometritlarni davolash va oldini olish.</p> <p>23. Hayvonlarda kam sut berishini oldini olish. Sut bezi ekstirpatsiyasi.</p> <p>24. Cho'chqalarda metrit-mastit-agalaktiya sindromi.</p>
3.	<p>VI. Ilmiy amaliyot (stajirovka)</p> <p>Ilmiy amaliyot ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy amaliyot (stajirovka) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrlar eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot ishlari, taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.</p> <p>Ilmiy amaliyot (stajirovka):</p> <ul style="list-style-type: none"> – ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi; – fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi; – amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi; – kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim. <p>Bunda ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida ham bajarishi ko'zda tutiladi. Ushbu holatda stajirovkani tashkil etish tartib-qoidolari amaldagi normativ-huquqiy hujjat (Nizom) asosida olib boriladi.</p>
4.	<p>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p>

	<p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>homila yo'ldoshi va homilada qon aylanishining o'ziga xosligi, plasenta baryeri; turli hayvonlarda bo'g'ozlikning kechishidagi o'ziga xoslik; sut bezlarining morfo-fiziologik jihatlari, ularning nuqsonlari va kasalliklarini davolash va oldini olishning ilmiy va nazariy asoslari tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</p> <p>hayvonlarda bo'g'ozlikni (jumladan, bepustlikni) diagnostika qilishning ilmiy asoslarini, bo'g'oz hayvonlar kasalliklarining etiopatogenezi haqidagi yangi nazariyalar, ularni davolash va oldini olishning takomillashtirilgan usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</p> <p>tug'ish patologiyasini oldini olish va davolashning zamonaviy usullarini, tug'ishga yordam ko'rsatishda zamonaviy akusherlik asbob-uskunalarini, kesarevo usulida qorin devorini kesish, fetotomiya operatsiyalarini bajarishni, tug'ishdan keyingi davrda kuzatiladigan kasalliklar, mastitlarning diagnostikasi, davolash va profilaktikasining ilmiy asoslangan zamonaviy usullarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka).</p>
5.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
6.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
7.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Eshburiev B.M. Veterinariya akusherligi. Darslik. - Toshkent.: "Fan va texnologiyalar", 2018 yil. 2. Eshburiev B.M., Djumanov S.M. Alimov B.S., Hayvonlar ko'payish biotexnikasi. Darslik. - Samarqand.: "SamDU tahririy-nashiriyot", 2023 yil. 3. Eshburiev B.M., Eshburiev S.B., Djumanov S.M. Veterinariya akusherligi fanidan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. - Samarqand.: "SamDU tahririy-nashiriyot", 2020 yil. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik.